

SHARQ CHINORI (*PLATANUS ORIENTALLUS L*) KO'CHATLARINI PARVARISHLASH BO'LIMIDA O'STIRISH

Xamroyev Xusen Fatullayevich,

Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti.,

Musa To'rabet Norboy o'gli

Termez davlat muxandislik va agrotexnologiyalar

universiteti assistenti

Kirish. O'zbekiston Respublikasining “O'rmon to'g'risida” gi qonunida mamlakatimizda o'rmonlarni saqlash, himoya qilish ularning maydonlarini ko'paytirish, xosildorligini oshirish va himoya hususiyatlarini kuchaytirishni e'tiborga olgan holda, bu muammolarni yechishda sun'iy o'rmonlar, tez o'suvchi daraxtlar plantatsiyalari, ihota daraxtzorlari barpo etishni rivojlantirishni yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni talab etadi [1]. Shuning uchun ham o'rmon xo'jaliklarining asosiy vazifasi sifatli urug'larni tayyorlash, ko'chatlar ekib madaniy o'rmonlar barpo etish hajmini oshirish, yangi fan yutuqlarini va tavsiyalardan unumli foydalanish hisoblanadi. O'rmonlarni qayta tiklash va sun'iy o'rmonlar barpo etish respublikamizda xalq xo'jaligining asosiy vazifasi bo'lganligi sababli soha yo'nalishi ish xajmi yildan yilga oshib bormoqda. Ayniqsa tuproq eroziyasi, qum ko'chishlari va sellarning oldini olishda yangi o'rmonlar barpo etib, himoya qilish ishlari yo'nalishida, orol muammosini yechishda sezilarli natijalarga erishilmoqda. Atrof-muhit, ekologik muvozanat mo'tadillagini saqlashda sun'iy o'rmonlar alohida o'rin tutadi va ularni o'rmini biron-bir boshqa tadbir bilan almashtirib bo'lmaydi.

Respublikamiz atrof-muxit ekologik muvozanatini yaxshilashda sun'iy o'rmonlarni ko'paytirish ishlari zamon talabiga javob demakdir. Tog'dagi jarliklarning paydo bo'lishi xafining oldini olishda, suv tanqisligi muammosini yechishda, selga qarshi kurashda, qumlarning ko'chishini to'xtatishda, dasht yaylovlarning xosildorligini

oshirishda, sug‘oriladigan yerlarda qishloq xo‘jalik ekinlari xosildorligini ko‘paytirishda sun’iy barpo etilgan o‘rmonlar va daraxtzorlarning axamiyati juda katta va sezilarlidir.

Tadqiqot uslubi. Sharq chinori tez o‘suvchi daraxtlar toifasiga kirganligi sababli ularning urug‘larini kuz mavsumida yoki erta bahorda dala sharoitida o‘stirish maqsadga muvofiqdir. Bunda yetishtirishgan ko‘chatlar 60 sm li jo‘yaklarga 10 sm ko‘chat oralig‘ida ekiladi.

Jo‘yaklarni tayyorlashdan oldin yer qo‘sishimcha ravishda tekislanadi. Jo‘yaklar to‘g‘ri va bir-biriga parallel ravishda joylashgan bo‘lishi va sug‘orish uchun qulay yunalishda bo‘lishi kerak. Jo‘yaklarning uzunligi esa 100-150 m dan oshmasligi kerak. Jo‘yaklar orasi - 60 sm, sug‘oriladigan ariqning yukoridagi qismining kengligi – 30 sm bo‘lishi zarur. Jo‘yaklar traktor yoki qo‘lda olinadi. Jo‘yaklar tayyorlangandan so‘ng ketmon bilan to‘g‘rilanadi, kesaklari bo‘lsa maydalanadi, jo‘yakni yuza qismi xaskash bilan tekislanadi. Yosh nihollarni ekishdan oldin nazorat tariqasida sug‘oriladi.

Bo‘z tuproqli yer maydonlarida nihol yetishtirish uchun yiliga gettar xisobiga 120 kg azot va 90 kg fosfor solinadi. Ushbu o‘g‘itlarni to‘rt muddatda, ya’ni asosiy qismini urug‘larni ekishda (azot 40 kg/ga, fosfor 60 kg/ga) va qolgan qismini ozuqa sifatida may oyining ikkinchi yarmida, iyun va avgust oylarida (azot 40+40 kg/ga, fosfor 30 kg/ga) solinadi. Ekishdan oldin beriladigan o‘g‘itlar urug‘lar solinadigan qatorning ostki qismiga solinadi. Buning uchun avval okunchik bilan 8-12 sm chuqurlikda ariq olinib ularning tubiga o‘g‘it solinadi va tepa qismiga jo‘yaklar tortiladi. O‘g‘itlarni ozuqa sifatida beriladigan qismi nixollarni o‘sish davrida 10-12 sm chuqurlikga, nixollarni 15-12 sm yoniga solinadi. Xar bir oziqlantirishdan oldin kultivatsiya qilinadi va begona o‘tlardan tozalanadi. O‘g‘it solingandan keyin sug‘oriladi.

Sharq chinorining nixoli tez o‘sadi. 1 yoshida uning bo‘yi 55-97 sm, ildiz bo‘g‘zining diametri esa 6,5-7,4 mm ga yetadi. Ko‘kalamzorlashtirish yoki plantatsiyalar barpo etish uchun 1-2 yoshli ko‘chatlar ekiladi. Kattaroq baland bo‘yli, ildizlari yaxshi rivojlangan ko‘chatlarini yetishtirish uchun esa 1 yoshli nixollar

parvarishlash bo'limiga ekilib, 1-2 yil parvarish qilinadi. Buning uchun nixollar fevral-mart oylarida kurtaklari bo'rtib chiqmasdan oldin $0,6 \times 0,1$ m tartibda ko'chirib ekiladi. Bunda 1 ga maydonda 167 mingga yaqin 1 yillik nihollar joylashtiriladi. Ekishdan oldin nihollarni bo'yi va ildiz bo'g'zining diametriga qarab saralanadi, yaroqsiz nixollar olib tashlanadi. Yaroqli nixollar ildiz bo'g'zi 2-3 sm chuqurlikga ekiladi, chunki bunda tuproqning cho'kishi e'tiborga olinadi. Ekish paytida yon shoxlari kesib tashlanadi, ekish tugashi bilan ko'chatlar sug'oriladi. Birinchi sug'orishdan so'ng qiyshaygan ko'chatlar to'g'irlab qo'yiladi va tuprog'i yumshatiladi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Ko'chatlarni parvarishlash bo'limida quyidagi ishlar bajarildi: sug'orish, begona o'tlarni yo'q qilish, tuproqni yumshatish, shox-shabbalari va tanasini shakllantirish. Ayniqsa ekilgan nixollarni o'z vaqtida sug'orilishga katta e'tibor qaratish zarur.

Odatda parvarishlash bo'limida birinchi yili vegetatsya davomida 8-10 martta sug'oriladi, aprelda 2-3 marta, iyun va iyulda 2 martadan, avgustda 1-2 marta, 2-yili 5-7 marta sug'orish yetarli bo'ldi.

Xar bir sug'orishdan 2-4 kun o'tgandan so'ng (tuproq yetilishi bilan) qator oralari kultivatsiya qilindi. Egatlar ketmon bilan yoz davomida 3-4 marta yumshatildi. Agar ekilgan nixollarni tagidan 2 yoki undan ortik novdalar o'sib chiqsa, bu xolda bittasi, eng kuchlirog'i qoldirilib, qolganlari kesib tashlandi. Birinchi yili iyul oyida ko'chatlarning yon shoxlari kisman kesildi. Ikki yoshli ko'chatlarni iyul oyining oxirida yon shoxlarini uzunligi bo'yicha kesildi, sentabrda esa ularni 1,5 m balandlikda kesib tashlandi.

Daraxtlar va butalarning asosiy fiziologik funksiyalaridan biri bo'lib mineral oziqlanish hisoblanadi. Mineral ozuqa moddalar o'simliklarda har xil funksiyalarni bajaradi. Ular o'simliklar to'qimasi tarkibiga kiradi, har xil reaksiyalarda katalizatorlar rolini o'ynaydi, osmotik jarayonlarni jilovlaydi va h.q. Mineral ozuqalarning har bir elementi o'simliklar organizmida o'ziga hos spetsifik funksiyalarni bajarganligi uchun boshqalari bilan almashtirib bo'lmaydi.

Tuproqdan iste'mol qilinadigan mineral ozuqa shartli ravishda ikki guruhga, ya'ni makroelementlarga va mikroelementlarga bo'linadi.

Birinchi guruhga o'simliklar uchun ko'p miqdorda zarur bo'lgan elementlar (azot, fosfor, kaliy, oltingugurt, kalsiy, magniy, temir va h.k.) kiradi.

Ikkinci guruhga esa o'simliklar juda ham kam miqdorda foydalanadigan, ammolarning normal ravishda rivojlanishi uchun zarur bo'lgan elementlar (sink, mis, molibden, bor, kobalt va h.k.) kiradi.

Albatta o'rmon ko'chatzorlarida ko'chat yetishtirishda yaxshi yutuqlarga erishish o'simliklarning mineral ozuqa elementlari ta'minoti bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ham ko'chatlar yetishtirishdagi asosiy samara beradigan agrotexnik tadbir, bu o'g'itlardan foydalanish hisoblanadi. O'g'itlarning tuproqdagi harakati har xil bo'lib, ular tuproqdagi ozuqa moddalar zahirasini to'ldiradi, ularning fizik xossalari yaxshilaydi, mikroorganizmlarning yashash qobiliyatlarini oshiradi.

O'g'itlar ko'chatlarning fitomassasiga va boshqa biometrik ko'rsatkichlariga hamda sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

Optimal oziqlanishi sharoitida yetishtirilgan ko'chatlar yaxshi rivojlangan ildiz tizimiga, hamda tuproq ustidagi ko'k massaga ega bo'ladi. Shuning uchun ham ular doimiy o'stirish joyiga olib, borib ekilganda yaxshi saqlashga ega bo'libgina qolmay, balki har xil tabiiy faktorlarga chiday oladilar.

O'g'itlardan foydalanish sistemasi uch bo'limga bo'linadi: asosiy o'g'itlar, - yerni shudgor qilishda sepiladigan; urug' sepishdan oldin beriladigan o'g'itlar; vegetatsiya davrida beriladigan qo'shimcha o'g'itlardan iborat.

O'simliklarni (nihollarni) butun vegetatsiya davrida optimal oziqlanish sharoitini yaratish maqsadida asosiy va urug' sepishdan oldin beriladigan o'g'itlar qo'shib amalgalash mumkin. Ildizlarga qo'shimcha o'g'it berish uchun ularni quruq va suyuq holda qo'llash mumkin. Agarda tuproq yaxshi namlikka ega bo'lsa yoki sug'orishdan oldin quruq holda o'g'itlash mumkin. Quruq tuproqlarga esa ularni eritilgan holda berish

mumkin. O‘g‘itlar 6-12 sm chuqurlikka va qatordan 6-7 sm uzoqlikda sepiladi. Tuproq ustiga esa eritilgan aralashmalar purkash yo‘li bilan bajarildi.

O‘simliklarning o‘g‘itlarga bo‘lgan talabi, ularni kimyoviy analizidan o‘tkazib aniqlandi.

jadval

Sharq chinori ko‘chatlarining o‘sib-rivojlanish ko‘rsatkichlari

Ko‘ch at yoshi	Ildiz bo‘g‘zining diametri, mm	Balandli gi, sm	Shoxlani sh darajasi, dona	Barg o‘lchami, mm
Bir yillik	45,9±0,34	138,6±0, 64	5	24,6x34
Ikki yillik	60,4±0,45	186,4±0, 74	7	36x46

Ushbu ko‘chatlarning o‘sib rivojlanishi tahlil etilganda, Sharq chinori ko‘chatlarining balandligi birinchi yilda $138,6\pm0,64$ sm ni tashkil etgan bo‘lsa, ikkinchi yilga kelib ushbu ko‘rsatkich $186,4\pm0,74$ sm ga teng bo‘ldi. Ko‘chatlarning shoxlanish ko‘rsatkichlari ham ularning o‘sish ko‘rsatkichlarigi mos ravishda o‘zgarib, Sharq chinorida esa dastlabki yili 5 dona shoxlanish kuzatilgan bo‘lsa, keyingi yillarda ushbu ko‘rsatkichlar 7 va 15 donani tashkil etdi. Ko‘chatlarning barg o‘lchamlari ham o‘sish mobaynida o‘zgarib, Sharq chinorida barg o‘lchamlari dastlab $14,6\times24$ mm bo‘lgan bo‘lsa, uchinchi yili 24×28 mm ga teng bo‘ldi.

Xulosa. Sharq chinori ko‘chatlarini urug‘idan yetishtirishda, ko‘chatlar ildiz bo‘g‘zining diametri ikkinchi yilga borib 15 mm ga ortganini, balandligini esa 48 sm ga o‘zgarganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida” gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 2018 yil 16 apreldagi sessiyasi. – Toshkent, 2018. – 18 b.

2. Хамроев Х. Ф., Ўғли М. Т. Н., Эрназаров А. Ю. ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИДАГИ ИХОТА ДАРАХТЗОРЛАРИНИНИНГ ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ //Science and innovation. – 2022. – №. Special Issue. – С. 149-151.
3. Хамроев Х. Ф., Ўғли М. Т. Н., Эрназаров А. Ю. ШАРҚ ЧИНОРИ КЎЧАТЛАРИНИ ВЕГЕТАТИВ УСУЛДА ЕТИШТИРИШ //Science and innovation. – 2022. – №. Special Issue. – С. 152-154.
4. Хамроев Х. Ф., Ўғли М. Т. Н. SHARQ CHINORI URUG'KOCHATLARINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI. //Science and innovation. – 2024. – №. Special Issue. – С. 449-453.